

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 5



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
5-son
oktabr, 2025

October 2025
Volume 3
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Овчиников Виктор Николаевич - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)

Солодовников Сергей Юревич - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika
universiteti)

Сидиров Виктор Александрович - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Шевченко Игорь Викторович - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya
universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)

Гибадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет

Московский энергетический институт Войнаш Сергей Александрович

Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве
РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве
РФ

Садриддинов Манучехр Исмоиддинович Международный университет
туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований

международных экономических отношений, Финансовый университет при
Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета.

Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и
бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета
Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы

Незамайкин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита

Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории
Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового
администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа

Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт
проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями,

Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva GulruxJo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

October 2025

Volume 3

Number 5

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Aholini o'zini o'zi bandligini ta'minlashda mehnat munosabatlarini ahamiyati

Nizametdinov Ali Akramovich

Значение трудовых отношений в обеспечении самозанятости населения

Низаметдинов Али Акрамович

The importance of labor relations in ensuring self-employment of the population

Nizametdinov Ali Akramovich

Received: September 11, 2025 Revised: September 14, 2025

■ Accepted: September 15, 2025 ■ Published Online: October 1, 2025

- **Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zini o'zi band qilganlar, mehnat munosabatlarida huquqiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinishi, buyurtmachilar bilan xizmat sifati yuzasidan bahslar, ijtimoiy sug'urta va pensiya to'lovlaridan chetda qolish kabi muammolar yoritib berilgan. Mehnat shartnomasi yoki unga o'xshash modelllar o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishi, ularning faoliyatini rasmiylashtirilishi va iqtisodiyotdagi norasmiy sektor ulushi tahlil etilgan.
- **Аннотация.** В этой статье рассматриваются проблемы самозанятых, включая недостаточную юридическую защиту в трудовых отношениях, споры с заказчиками по качеству услуг, а также отсутствие социальной страховки или пенсионных выплат. Анализируется, как трудовые договоры или аналогичные модели могут усилить юридическую защиту самозанятых, официально оформить их деятельность и долю неформального сектора в экономике.
- **Abstract.** This article examines the problems faced by self-employed individuals, including insufficient legal protection in labor relations, disputes with clients regarding the quality of services, and the lack of social insurance and pension payments. It analyzes how labor contracts or similar models can strengthen the legal protection of the self-employed, formalize their activities, and assess the share of the informal sector in the economy.
- **Kalit** so'zlar. Kalit so'zlar. Mehnat, bozor, norma, ijtimoiy, ta'minot, soliq, nafaqa, hujjat, rag'batlantirish, munosabat, tamoyil, mexanizm, kafolat, majburiyat, daromad, qonun, me'yor, subyekt, natija.

KIRISH

O'zini o'zi band qilish instituti bugungi kunda ham milliy mehnat bozorini tartibga solish, ham rasmiy sektorga norasmiy faol aholining jalb etishda muhim mexanizm sifatida qaralmoqda. Xususan, mahallalarda aholining bo'sh mehnat resurslarini ishga solish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish maqsadida so'nggi yillarda "o'zini o'zi band qilgan fuqarolar" maqomini yengillashtirilgan tartibda berish amaliyoti joriy etildi. Ushbu tizimda asosiy yondashuvlardan biri – fuqaro bir martalik yig'im yoki to'lov to'lash orqali rasmiy ro'yxatdan o'tkazish va unga qonuniy mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqi berishdir. Shu bilan birga, davlat tomonidan bu turdagi shaxslarga keyinchalik keksalik nafaqasini belgilangan tartibda tayinlash imkoni ham ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodchi olim B.K. Ochilovning "Mahalla instituti - aholi bandligini ta'minlash drayveri" nomli ilmiy maqolasi mahalla institutining aholi bandligini ta'minlashdagi o'rniga ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar nuqtai nazaridan bag'ishlanib, uning iqtisodiy funksiyalarini yangi formatda talqin qiladi.[1] Muallif ilmiy ishda mahalla fuqarolar yig'inini fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida belgilash jarayonida uni aholi bandligini ta'minlashning muhim drayveri sifatida asoslaydi. M.Q. Pardaev va uning ilmiy jamoasi mahalla aholisining mehnat resurslarini iqtisodiyotga jalb qilinmagan zaxira sifatida baholab, ularni kichik biznes va mikro-tadbirkorlikka yo'naltirish orqali o'zini-o'zi band qilish imkoniyatlari kengayishini ta'kidlaydi. Olimlarning fikricha, o'zini-o'zi band qilishni mehnat bozoridagi formallashuvchi jarayon sifatida ko'rib, tadbirkorlikni institutsional qo'llab-quvvatlash (soliq imtiyozlari, kredit subsidiyalari) muhimligini qayd etadi [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aholi o'zini o'zi bandligini ta'minlashning xususiyatlari va asosiy tamoyillarini tadqiq etishda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va statistik ma'lumotlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash va dalillar to'plash kabi nazariy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarni o'rganish va kuzatish kabi empirik tadqiqot metodlari qo'llanildi.

NATIJALAR VA TAHLILLAR

O'zini o'zi band qilganlar faoliyati normativ-huquqiy jihatdan hal etilgan bo'lib, mobil "Soliq" ilovasi, shaxsiy kabinet yoki my.gov.uz portali orqali tez va bepul amalga oshiriladi va bir martalik to'lovini to'lash hamda belgilangan faoliyat turlarini amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. Biroq amaldagi tizim faqatgina rasmiy maqom bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning munosib mehnat, barqaror daromad, ijtimoiy muhofaza va iqtisodiy integratsiya kabi fundamental ehtiyojlarini to'liq qamrab ololmayapti.

O'zini o'zi band qilgan shaxslarning ijtimoiy soliq to'lovlari masalasi O'zbekistonda mehnat bozori va ijtimoiy himoya tizimida muhim o'rin egallaydi. Ammo amalda bu yo'nalishda qonunchilik hujjatlarida ayrim nomuvofiqliklar mavjud bo'lib, ular huquqni qo'llash jarayonida turli muammolarga sabab bo'lmoqda.

Xususan, Soliq kodeksining 408-moddasiga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar mehnat stajini hisoblash imkoniyatiga ega bo'lishi uchun yiliga kamida bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) bir baravari miqdorida ijtimoiy soliq to'lashi shart. Bu normadagi maqsad – ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va kelgusida pensiya ta'minotini barqaror saqlashdir.

Shu bilan birga, "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunning 36-moddasida boshqa me'yor belgilangan. Unga ko'ra, o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy soliq miqdori BHMning 50 foizidan kam bo'lmasligi lozim. Bu norma esa ko'proq aholini rasmiylashtirishga va ular uchun yengillik yaratishga qaratilgan.

Natijada ikki qonun hujjatida turli raqamiy me'yorlar belgilangani sababli huquqni qo'llash amaliyotida tushunmovchiliklar vujudga kelmoqda. Masalan, pensiya jamg'armasi organlari Soliq kodeksi normasiga tayanib to'liq BHM miqdorini talab qilishi mumkin, mahalla va bandlik organlari esa "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonundagi me'yorni asos qilib, yarim BHM to'lovini yetarli deb qabul qilishi ehtimoli mavjud.

Qonun hujjatlaridagi mazkur nomuvofiqlik nafaqat huquqiy muammolarni, balki ijtimoiy ishonchsizlik va amaliy qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun qonunchilik bazasini uyg'unlashtirish, yagona me'yor belgilash va uni barcha idoralar tomonidan bir xil qo'llash zarur. Bu nafaqat o'zini o'zi band qilgan shaxslar huquqlarini himoya qiladi, balki mehnat bozorining shaffofligi va pensiya tizimining barqarorligi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, o'zini o'zi band qilish tizimining samaradorligini oshirishda dastlabki rasmiylashtirish bosqichidan tashqari yangi – idoralararo muvofiqlashgan, ko'p bosqichli va inklyuziv institutsional yondashuv zarur. Bu esa, mazkur faoliyat turini mehnat bozorida to'laqonli iqtisodiy segmentga aylantirish imkonini beradi.

Birinchi navbatda, mehnatning munosibligi tamoyili joriy etilishi lozim. Bu o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

- kambag'allik chegarasidan yuqori bo'lgan minimal daromad kafolati;
- mehnat va dam olish vaqtlarining tartibining aniq belgilanishi;
- mehnat muhofazasi va xavfsiz mehnat shartlarini amalga oshirish.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg'unlik ta'minlanishi zarur. Ya'ni o'zini o'zi band qilganlar uchun ishsizlikdan sug'urta va mehnat qobiliyatini yo'qotgandagi nafaqalar kabi ijtimoiy paketlar ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, ularning yuqori xatar darajasiga ega bo'lgan mehnat faoliyatini ijtimoiy muhofaza vositasiga aylantiradi.

Uchinchidan, iqtisodiy barqarorlik va daromad oshirish uchun:

- mikromoliya, subsidiya va mikrograntlar tizimi joriy etish;
- bozor infratuzilmasi va xizmatlaridan (logistika, savdo maydonlari, kooperatsiya) foydalanish imkoniyatini kengaytirish;
- mahsulotlar/xizmatlarni realizatsiya qilishga qaratilgan "mahalla-tuman-viloyat-rivojlangan bozor" zanjirini ishlab chiqish talab etiladi.

To'rtinchidan, monitoring va baholash mexanizmini kuchaytirish muhim. Bu orqali o'zini o'zi band qilish tizimining hududiy, sohaviy va dinamik natijalari baholanadi, kamchiliklar vaqtli aniqlanadi va siyosati takomillashtiriladi. Umuman, o'zini o'zi band qilganlarni shunchaki "band" sifatida rasmiylashtirish emas, balki ularni iqtisodiy jihatdan faol, bozor munosabatlarida raqobatbardosh va ijtimoiy himoyalangan mehnat subyektlariga aylantirish ana shunday tizimning asosiy maqsadidir.

O'zini o'zi band qilish tizimi mehnat bozorining muhim funksional markaziga aylanishi uchun u "yopiq" huquqiy mexanizm emas, balki idoralararo integratsiyalangan, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiy institut sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bunda faqatgina rasmiy ro'yxatdan o'tish emas, balki:

1. Munosib mehnat talablariga javob beradigan faoliyat muhitini yaratish;
2. Barqaror daromad va kambag'allikdan chiqishning kafolatli parametrlarini joriy etish;
3. Ijtimoiy himoya tizimlari bilan uyg'unlikni ta'minlash;
4. Davlat-mahalla-fuqaro hamkorligini kuchaytirish;
5. Rag'batlantiruvchi moliyaviy-institutsional dasturlarni amalga oshirish kabi vazifalar markaziy o'rin tutishi lozim bo'ladi.

Faqat ana shundagina o'zini o'zi band qilganlar faoliyati mehnat bozorining "noformal" doirasidan chiqib,

iqtisodiyotning samarali, ijtimoiy adolatli va barqaror tarkibiy qismiga aylanishi mumkin.

Rivojlangan va ayrim taraqqiy etayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi band qilganlar faoliyati davlat tomonidan shunchaki rasman tan olinmaydi, balki iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayverlaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlanadi. Quyida mazkur sohadagi amaliyotda o'zini oqlagan xorijiy mexanizmlar keltirilgan:

Misol uchun, Janubiy Koreyada mahallalar darajasida "O'zini o'zi band qilish inkubatsiya markazi (Self-employed Incubation Centers)" tashkil etilgan bo'lib, ular o'zini o'zi band qilgan shaxslarga moddiy-texnika bazasi (ustaxona, ofis), biznes maslahatlari, kredit liniyalariga kirish imkoniyatini taklif etadi. Shu orqali ularning faoliyati tadbirkorlik bosqichiga o'tishiga amaliy ko'mak beriladi.

Xitoy Xalq Respublikasida o'zini o'zi band qilganlar maqomi "mikro tadbirkor" maqomiga tenglashtirilgan. Ularning mahsulotlarini ichki bozorda sotishga ikki yilgacha bozor ijara to'lovlaridan ozod etish, savdo yarmarkalari orqali marketing ko'magi ko'rsatish amaliyoti qo'llaniladi. Ijtimoiy himoya yangi tizim – "ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta" asosida yo'lga qo'yilgan.

AQShda "O'zini o'zi band qilishga ko'maklashish dasturi (Self-Employment Assistance Program - SEAP)" orqali ishsizlik nafaqasi oluvchilar o'zini o'zi band qilish faoliyati boshlagan taqdirda ham nafaqa saqlab qolinadi. Jamoaviy akseleratsiya markazlari va biznes inkubatorlar orqali ularning vaqtincha operasion xarajatlari qoplab beriladi. Mehnat muhofazasi va ijtimoiy himoya tizimida frilanserlar va o'zini o'zi band qilganlar uchun alohida tartib (pension, tibbiy sug'urta va h.k.) mavjud.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, o'zini o'zi band qilganlar mehnat munosabatlarida huquqiy jihatdan yetarli darajada himoya qilinmagan. Ko'p hollarda ular buyurtmachilar bilan og'zaki kelishuv asosida ishlaydi, bu esa to'lov kechikishlari, xizmat sifati yuzasidan bahslar, ijtimoiy sug'urta va pension to'lovlardan chetda qolish kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan, o'zini o'zi band qilganlar uchun mehnat shartnomasi modeli ishlab chiqish zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Bunday shartnoma ularning huquq va majburiyatlarini rasmiylashtirish, to'lov va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda mehnat bozoridagi shaffoflikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

O'zini o'zi band qilganlar uchun mehnat shartnomasi modeli ularning faoliyatini rasmiylashtirishning eng samarali usuli sifatida qaraladi. Ushbu model quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi mumkin:

Tomonlarning maqomi va huquqiy holati. Shartnoma ikki tomonini aniq belgilaydi: xizmat ko'rsatuvchi – o'zini o'zi band qilgan shaxs; buyurtmachi – xizmatdan foydalanuvchi

jismoniy yoki yuridik shaxs. Maqom aniq yozilishi orqali ularning munosabatlari huquqiy asosda mustahkamlanadi. Xizmat turi va shartlari. Har bir shartnomada xizmatning nomi, ko'lam, muddati va bajarilish tartibi aniq ko'rsatilishi zarur. Bu shaffoflikni ta'minlaydi va har ikki tomon manfaatini himoya qiladi.

Haq to'lash mexanizmi. Xizmat uchun haq to'lash shartlari shartnomada alohida yozilishi lozim: to'lov usuli (naqd, bank, elektron to'lov), muddati va kechiktirilgan holda kompensasiya yoki penya qo'llanilishi belgilanishi kerak.

Ijtimoiy kafolatlar. Shartnoma ijtimoiy himoya tizimi bilan uyg'unlashishi maqsadga muvofiq. Masalan, shartnoma asosida ishlagan shaxsga pension staji hisoblanishi, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ish qobiliyatini yo'qotish holatlarida moddiy yordam ko'rsatilishi mumkin.

Huquq va majburiyatlar.

Xizmat ko'rsatuvchi: xizmatni belgilangan shartlarga muvofiq bajarish,

maxfiylikni ta'minlash, sifatga javob berish.

Buyurtmachi: xizmat uchun o'z vaqtida haq to'lash, shartnomani buzmaslik, xizmat ko'rsatish uchun zarur sharoitni yaratish.

Bahslarni hal qilish tartibi.

Xizmat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojarolarni hal qilishning soddalashtirilgan tartibi shartnomada belgilab qo'yilishi kerak. Masalan, mahalla yoki arbitraj komissiyasi orqali yoki elektron ariza berish orqali nizolarni hal etish mumkin.

Bunday model o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi, to'lovlar kafolatini ta'minlaydi va ijtimoiy kafolatlariga kirish imkonini ochadi.

Ko'plab davlatlar o'zini o'zi band qilganlar uchun mehnat shartnomasi yoki unga yaqin huquqiy mexanizmlarni joriy etgan. Jumladan, Germaniya tajribasida frilanserlar uchun maxsus "Freelance Contract" shakli ishlab chiqilgan. Unda xizmat turi, haq to'lash tartibi, ijtimoiy to'lovlar va huquqiy himoya choralar aniq ko'rsatilgan. Shu bois, frilanserlar tadbirkor sifatida tan olinadi va to'liq huquqiy himoyaga ega bo'ladi.

Raqamli davlat sifatida Estoniyada maxsus elektron platforma orqali o'zini o'zi band qilganlar shartnoma tuzishi mumkin. Bu shartnoma avtomatik ravishda davlat bazasiga kiritiladi, soliqlar va ijtimoiy to'lovlar esa elektron hisob-kitob tizimi orqali amalga oshiriladi.

Turkiyada erkin kasb egalari "Serbest Meslek Makbuzu" orqali xizmat ko'rsatganda rasmiy hujjat tuzadi. Bu hujjat shartnoma vazifasini bajaradi va ularning huquqiy kafolatini ta'minlaydi.

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, mehnat shartnomasi yoki unga o'xshash modellarni o'zini o'zi band qilganlarning huquqiy himoyasini kuchaytiradi, ularning faoliyatini

rasmiylashtiradi va iqtisodiyotdagi norasmiy sektor ulushini qisqartiradi.

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlar uchun mehnat shartnomasi modelini ishlab chiqish bir necha muhim vazifalarni hal etadi va quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- xizmat munosabatlari rasmiylashtiradi va huquqiy kafolatlarini ta'minlaydi.

- xizmat uchun haq to'lash jarayonini shaffof qiladi va kechikishlar oldini oladi.

- ijtimoiy kafolat tizimiga qo'shilish imkonini ochadi.

- norasmiy sektor ulushini kamaytiradi va iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlaydi.

- o'zini o'zi band qilganlarni tadbirkorlik faoliyatiga olib chiqishda muhim omilga aylanadi.

Shu bois, mehnat shartnomasi modelini ishlab chiqishda xorijiy tajribalardan foydalanish, uni milliy huquqiy tizimga moslashtirish va elektron platforma orqali joriy qilish O'zbekiston uchun eng maqbul yo'l hisoblanadi.

Masalaning yana bir muhim yo'nalishi shundan iboratki, amaldagi o'zini o'zi band qilish yondashuvning davlat byudjetiga uzoq muddatli ta'siri ehtimolini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur model shuni ko'rsatadiki, bir martalik to'lovlar hisobidan o'zini o'zi band qilganlar to'g'risidagi tizim mehnat faoliyatini qisqa muddatli rasmiylashtirish samarasini berishi mumkin bo'lsa-da, uzoq muddatda pensiya tizimi orqali byudjet xarajatlari keskin ortib ketish ehtimoli yuqori va ijtimoiy sug'urta fondida katta qoplanmaydigan "defisit" hosil qilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, davlat byudjeti uchun nihoyatda katta moliyaviy tavakkalchilik hisoblanadi. Bunday muammolarni quyidagi guruhlariga ajratgan holda chuqurroq ifoda etamiz:

- daromad va xarajat muvozanati buzilishi. Bir martalik badal, aytaylik, juda kichik miqdorda to'lanadi. Ammo keyinchalik shaxs minimal pensiya tayinlash huquqiga ega bo'ladi. Pensiyaning umumiy qiymati, umr davomiyligi va demografik bosim hisobga olinganda, byudjet xarajatlari tushumdan bir necha barobar ko'p bo'lishi aniq.

- sug'urta tizimidagi disbalans. Pensiya tizimi "avlodlar hamjihatligi" tamoyiliga asoslanadi: ishlaydiganlar to'laydi, pensionerlar esa oladi. Agar o'zini o'zi band qilganlardan to'lanadigan mablag' juda kam bo'lsa, bu disbalansni kuchaytiradi va pensiya jamg'armasi qarzdorligini oshiradi.

- iqtisodiy adolatsizlik. Mehnat staji va ijtimoiy to'lovlarni to'liq amalga oshirgan ishchilar bilan minimal miqdorda bir martalik to'lov qilgan o'zini o'zi band qilganlar bir xil minimal pensiya olishlari ijtimoiy adolatsizlikka olib kelishi mumkin.

- byudjetdagi yukning ortishi. Agar kelgusi 10-15 yil ichida o'zini o'zi band qilganlar soni millionlab kishiga yetsa,

ularning hammasi minimal pensiya olish huquqiga ega bo'ladi. Bu davlat byudjeti xarajatlarini keskin ko'paytirib, ijtimoiy xarajatlar ulushining ortishiga olib keladi.

O'zbekistonda pensiya tizimi qayta taqsimlovchi modelga asoslangan bo'lib, ishlaydiganlar tomonidan to'lanadigan ijtimoiy badallar asosan amaldagi pensionerlarning nafaqasiga sarflanadi.

Pensiya jamg'armasining asosiy daromad manbalari ish beruvchilar va ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan majburiy to'lovlar, o'zini o'zi band qilgan shaxslarning ixtiyoriy badallari hamda davlat tomonidan ajratiladigan subsidiyalari hisoblanadi. Biroq demografik o'zgarishlar, ya'ni pensionerlar sonining ko'payishi va ishchi kuchining ulushi qisqarishi natijasida jamg'arma xarajatlari tobora o'sib bormoqda. Bu esa davlat byudjetidan qo'shimcha mablag'

ajratilishini talab qiladi va ijtimoiy xarajatlar strukturasi da muayyan muvozanatsizlikka olib keladi.

Shu nuqtai nazardan, jamg'arma daromad va xarajatlarning tuzilishi, unda o'zini o'zi band qilgan shaxslar badallarining o'zni va davlat byudjetidan ajratiladigan resurslarning ulushi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tahlil nafaqat moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan, balki kelgusida pensiya tizimining samaradorligi va aholining ishonchini ta'minlash uchun ham katta ahamiyatga ega. Jamg'armaning moliyaviy barqarorligi kelgusida ishchi kuchini keng qamrab olish, o'zini o'zi band qilganlarning to'lov intizomini oshirish va investisiya daromadlarini ko'paytirishga bevosita bog'liq. Shunda davlat byudjetidan qo'shimcha mablag' talabini qisqartirish va tizimning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

1-jadval.

Pensiya jamg'armasi daromad va xarajatlari

YO'NALISH	ULUSH (%)	IZOH
DAROMAD QISMI		
Ish beruvchilardan ijtimoiy badallar	45–50 %	Korxonalar ishchilar uchun to'laydigan majburiy to'lovlar
Ishchilardan shaxsiy ijtimoiy to'lovlar	25–30 %	Oylik ish haqidan ushlab qolinadigan badallar
O'zini o'zi band qilganlardan to'lovlar	5–7 %	Bir martalik yoki muntazam badallar
Davlat subsidiyalari va byudjetdan ajratmalar	15–20 %	Jamg'arma defitsitini qoplash uchun
Boshqa tushumlar	2–3 %	Jamg'arma mablag'laridan olinadigan qo'shimcha daromadlar
XARAJAT QISMI		
Amaldagi pensionerlarga nafaqa to'lovlari	70–75 %	Asosiy xarajat qismi
Nogironlik va boqimandalik nafaqalari	10–12 %	Nogironlik, boqimandalik nafaqalari
Ijtimoiy to'lovlar (vaqtinchalik moddiy yordam, sug'urta)	5–7 %	Qisqa muddatli ijtimoiy himoya
Jamg'arma ma'muriy xarajatlari	3–5 %	Boshqaruv, raqamli infratuzilma, xizmat ko'rsatish
Boshqa maqsadlar	2–3 %	Qonunchilikda belgilangan yo'nalishlar

Agar o'zini o'zi band qilganlar to'lovlari Pensiya jamg'armasiga faqat kirib, shu zahotiyq amaldagi pensionerlarga to'lansa, bu byudjetga yuk bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ushbu mablag'larni investitsiya orqali ko'paytirish zarur. Ya'ni, jamg'arma nafaqat "to'lovchi-oluvchi" sxemasi bo'lishi kerak,

balki uning daromadli qismi ham tashkil etilsa, kelajakda byudjetdan qo'shimcha mablag' ajratish zarurati kamayadi. Ya'ni, o'zini o'zi band qilganlardan yig'ilgan ijtimoiy to'lovlarni faqat joriy nafaqalarni moliyalashtirishga emas, balki uzoq muddatli investitsiya instrumentlariga yo'naltirish orqali

qo'shimcha daromad olish imkoniyati mavjud. Bu orqali ikki yo'nalishda samaraga erishish mumkin:

Agar tushumlarning bir qismi davlat qimmatli qog'ozlari, bank depositlari, infratuzilma loyihalariga yo'naltirilsa, jamg'arma har yili barqaror foizli daromad oladi. Bu mablag'lar keyinchalik minimal pensiyalarni qoplashda ishlatiladi va byudjetdan qo'shimcha mablag' ajratishga ehtiyoj kamayadi. Investitsiyadan olingan foyda maxsus "ijtimoiy subsidiya fondi"ga o'tkazilishi va undan nafaqat minimal pensiya, balki nogironlik, boqimandalik nafaqalari va vaqtinchalik moddiy yordamlar uchun foydalanilishi mumkin.

Shu tariqa, o'zini o'zi band qilganlardan tushgan mablag'lar faol investitsiya vositalariga yo'naltirilsa, ularning har bir to'lovi nafaqat staj, balki kelgusidagi pensiya resurslarini moliyalashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasiga ham to'xtalib o'tsak. Jumladan, Chilida pensiya tizimi individual hisobga asoslangan. Har bir ishchi yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs to'lovini shaxsiy hisobga to'playdi. Bu mablag'lar pensiya fondlari tomonidan moliyaviy bozorlarda investitsiya qilinadi va keyinchalik shaxsning pensiyasi aynan shu hisobdan to'lanadi. Bu model orqali davlat byudjetining yuki keskin kamaygan.

Kanada pensiya jamg'armasi faqat ichki emas, balki xorijiy moliya bozorlariga ham sarmoya qiladi. Aksiyalar, obligatsiyalar va infratuzilma loyihalariga yo'naltirilgan mablag'lar orqali jamg'arma yillik katta daromad oladi. Bu daromadlar nafaqat amaldagi pensionerlarni, balki kelajak avlodlarning pensiya huquqini ta'minlashga xizmat qiladi.

Norvegiyada ijtimoiy badallar maxsus jamg'armaga to'planadi va jahon moliya bozorlariga investitsiya qilinadi. Hozirda bu fond dunyoning eng yirik pensiya xazinalaridan biriga aylangan.

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy to'lovlarni faqat joriy xarajatlarga sarflash emas, balki daromad keltiradigan aktivlarga yo'naltirish orqali pensiya tizimini uzoq muddatli barqaror qilish mumkin.

O'zbekistonda o'zini o'zi band qilganlardan yig'iladigan ijtimoiy to'lovlarning hozircha ulushi kichik bo'lsa-da, ularni samarali boshqarish orqali:

- jamg'armada qo'shimcha manbalar yaratish,
- minimal pensiyalarni to'lashda davlat byudjetining yukini kamaytirish,
- ijtimoiy adolatni ta'minlash va aholi ishonchini oshirish mumkin.

Shu maqsadda quyidagilar taklif etiladi:

- o'zini o'zi band qilganlar to'lovlari uchun alohida investitsiya fondi tashkil etish.
- mablag'larni xavfi past, daromadi kafolatlangan aktivlarga yo'naltirish (davlat qimmatli qog'ozlari, bank depositlari, infratuzilma loyihalariga).

- investitsiyadan olingan foydani minimal pensiyalarni qoplashga yo'naltirish.

- jamg'armaning investitsiya faoliyati bo'yicha shaffof yillik hisobot tizimini yo'lga qo'yish.

Pensiya jamg'armasiga tushayotgan bir martalik to'lovlar va shartnoma asosidagi badallar to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy to'lovlarga sarflansa, bu davlat byudjetiga qo'shimcha yuk keltiradi. Masalan, 2024 yilda O'zbekistonda pensiya tizimi xarajatlari YAIMning 7,5 %ini tashkil etgan. Shu bois mablag'larni xavfi past va daromadi kafolatlangan investitsiya yo'nalishlariga joylashtirish orqali jamg'armaning moliyaviy mustaqilligi ta'minlanadi.

Shularni inobatga olgan holda, biz quyidagi mexanizmni sxema ko'rinishida taklif qilamiz. Ushbu mexanizmning asosiy mohiyati — ishsiz fuqarolarni mahalliy institutlar (IXMA, MFY) orqali aniqlab, elektron platformalar (Soliq.uz, My.gov.uz) orqali rasmiy mehnat munosabatlariga kiritish, ularning to'lovlari pensiya jamg'armasiga yo'naltirish va mazkur mablag'larni xavfi past, daromadi kafolatlangan investitsiyalariga joylashtirish va bu orqali iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat yaratish, pensiya jamg'armasi uzoq muddatli barqarorligi ta'minlash iboratdir(1-rasm).

Ushbu mexanizmning asosiy maqsadi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy maqsad - aholining ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olish, ularning rasmiy mehnat stajiga ega bo'lishini ta'minlash va minimal pensiya kafolatini yaratish.


Iqtisodiy maqsad - pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiya orqali ko'paytirish, davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish.

Institutsional maqsad - mahalliy ijtimoiy himoya organlari, davlat elektron platformalari va moliya institutlari o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash.

Uzoq muddatli maqsad - pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va aholi ishonchini oshirish.

Bizning fikrimizcha investitsiya yo'nalishlari orqali qo'shimcha qiymat yaratishni quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz:

- davlat qimmatli qog'ozlari: xavfi past, davlat byudjetiga ishonchli moliyaviy resurs sifatida xizmat qiladi.
- tijorat banklarida depositlar: moliyaviy aylanmalarni rag'batlantirib, bank tizimi barqarorligini ta'minlaydi.
- infratuzilma loyihalariga sarmoya: uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Masalan, Janubiy Koreya pensiya fondlarining 12 % mablag'lari infratuzilmaga yo'naltirilgan.
- mikrokredit dasturlari: o'zini o'zi band qilganlar va kichik biznes uchun qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Hindistondagi Self-Employed Women's Association (SEWA) modeli bu yo'nalishning ijtimoiy samaradorligini isbotlagan.



1-rasm. O'zini o'zi band qilishning takomillashtirilgan sxemasi

Ushbu mexanizmning asosiy maqsadi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Ijtimoiy maqsad - aholining ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olish, ularning rasmiy mehnat stajiga ega bo'lishini ta'minlash va minimal pensiya kafolatini yaratish.

Iqtisodiy maqsad - pensiya jamg'armasi mablag'larini investitsiya orqali ko'paytirish, davlat byudjetiga tushadigan yukni kamaytirish.

Institutsional maqsad - mahalliy ijtimoiy himoya organlari, davlat elektron platformalari va moliya institutlari o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash.

Uzoq muddatli maqsad - pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va aholi ishonchini oshirish.

Bizning fikrimizcha investitsiya yo'nalishlari orqali qo'shimcha qiymat yaratishni quyidagi yo'nalishlar orqali amalga oshirish mumkin deb hisoblaymiz:

- davlat qimmatli qog'ozlari: xavfi past, davlat byudjetiga ishonchli moliyaviy resurs sifatida xizmat qiladi.
- tijorat banklarida depositlar: moliyaviy aylanmalarni rag'batlantirib, bank tizimi barqarorligini ta'minlaydi.
- infratuzilma loyihalariga sarmoya: uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga turtki beradi. Masalan, Janubiy Koreya pensiya fondlarining 12 % mablag'lari infratuzilmaga yo'naltirilgan.
- mikrokredit dasturlari: o'zini o'zi band qilganlar va kichik biznes uchun qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Hindistondagi Self-Employed Women's Association (SEWA) modeli bu yo'nalishning ijtimoiy samaradorligini isbotlagan.
- xorijiy investitsiyalar: valyuta xatarlarini diversifikatsiya qilishga va inflyatsiyadan himoyaga xizmat qiladi. Kanada

Pensiya Jamg'armasi aktivlarining 30 %dan ortig'i xorijiy moliya bozorlariga yo'naltirilgan.

1-rasmda keltirilgan sxemada ifodalangan mexanizm nafaqat o'zini o'zi band qilgan fuqarolarning pensiya tizimiga jalb etilishini, balki ularning to'lovlari orqali ijtimoiy adolat va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks institutsional modelni ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, sxema o'zini o'zi band qilganlar to'lovlari samarali yo'naltirishning "ijtimoiy himoya – munosib mehnat – moliyaviy barqarorlik" tartibidagi uch blokli mexanizmini yaratadi. Bu tizim amalga oshirilsa:

- davlat byudjeti xarajatlari qisqaradi;
- pensiya tizimining uzoq muddatli barqarorligi ta'minlanadi;
- ishsiz fuqarolarning rasmiy mehnat bozoriga kirishi tezlashadi;
- ishonchi va ijtimoiy adolat mustahkamlanadi.

Umuman olganda, bu mexanizm O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida xizmat qilishi mumkin.

Agar ushbu choralar amalga oshirilsa, o'zini o'zi band qilganlardan yig'iladigan mablag'lar nafaqat mehnat staji berish vositasi, balki pensiya tizimini moliyaviy barqaror qiladigan muhim resursga aylanishi mumkin deb hisoblaymiz.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Nizametdinov Ali Akramovich TDIU tayanch doktoranti/
Низаметдинов Али Акрамович докторант ТГЭУ /
Nizametdinov Ali Akramovich TSEU doctoral student
► alwaysberich@gmail.com
■ ORCID: 0000-0002-2655-3282

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Очилов Б.К. "Mahalla instituti – aholi bandligini ta'minlash drayveri". O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar, №7, 2023.
- [2]. Пардаев М.Қ., Олтаев Ш., Пардаева О.М., Тагирова Н.Б. Har bir oilada tadbirkorlik – o'zini-o'zi band qilish imkoniyati (amaliy tavsiyalar). Samarqand: SamISI, 2018. – 214 bet.
- [3]. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 y. <https://lex.uz/docs/6445145>.
- [4]. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. – T.: Adolat, 2022 y. – 56 b. <https://lex.uz/docs/6257288>.
- [5]. Абдурахманов К.Х. Компетенции XXI века: научно-технологические, социально-экономические и гуманитарные знания. Биржа. №49(3036) 04.07.2023.
- [6]. Aliqulov H.O'. O'zini o'zi band qilish iqtisodiyoti va mahalla tizimi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 186 b.